

Qurbonova Feruza Ilhomovna

v/b. Dotsent f.f.f.d.

Qarshi davlat texnika universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası

e-mail: feruzaq42@gmail.uz

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola badiiy asar kayfiyatining inson ruhiyatiga bevosita va bilvosita ta’siri badiiy mushohada teranligi hamda badiiy estetik salohiyatining ichki qonuniyati bir butunlikda uyg‘unlashib talqin etilishi yozuvchining yutug‘i hisoblanadi. Adib qahramon ruhiyatini tahlil qilar ekan, har bir personaj yashashdan maqsad va ma’no qidiradi. Olloh tomonidan buyurilgan farz va amallarni ikki dunyo mezonidan kelib chiqib baholaydi va baholi qudrat bajaradi, shunga ko‘ra romanda psixologik, falsafiy va ilohiy tushunchalar badiiy umumlashma mazmun kasb etadi.

Kalit so‘z: ezgulik, psixologik, inson ruhiyati, fe’l-atvor, xarakter.

ANNOTATSIYA: Статья является достижением писателя, который интерпретирует прямое и косвенное воздействие настроения художественного произведения на психику человека, глубину художественного наблюдения и внутренний закон художественно-эстетического потенциала в едином целом. Анализируя психику героя, писатель ищет цель и смысл жизни. Он оценивает обязанности и деяния, заповеданные Богом, исходя из критериев двух миров и осуществляет власть оценки, соответственно, психологические, философские и божественные концепции приобретают в романе художественное обобщение.

Ключевые слова: доброта, психология, человеческий дух, характер, расположение духа.

ANNOTATION: This article is an achievement of the writer, who interprets the direct and indirect impact of the mood of a work of art on the human psyche, the depth of artistic observation, and the internal law of artistic aesthetic potential in a unified whole. While analyzing the psyche of the hero, the writer seeks a purpose and meaning in life. He evaluates the duties and deeds commanded by God based on the criteria of two worlds and performs the power of evaluation, accordingly, psychological, philosophical and divine concepts acquire artistic generalization in the novel.

Key word: goodness, psychological, human spirit, character, disposition.

Chorak asr davomida tarix va inson munosabatlarini idrok va ifoda etish tamoyillari tamomila o‘zgardi. Badiiy haqiqat ijtimoiy-siyosiy hayot tasviridan ustun qo‘yilib, Arastu davridayoq tasdig‘ini topgan mavqeini egalladi. Endilikda, personaj aksariyat sho‘ro romanlarida kuzatilganidek, voqelikka ilova emas, balki o‘z o‘y-xayol va xatti-harakati bilan tirik inson sifatida xolis tasvirlana boshladi.

Boshqacha aytganda, alohida shaxs borlig‘i ijtimoiy voqelikdan ko‘ra murakkabroq hodisa va uni tushunish va izohlash muhim ekani poetik idrok etila boshladi. Globallashuv davri shiddati ta’sirida o‘z milliy qiyofasidan ayrilib qolmaslikka intilayotgan kishilar ruhiy intellektual olami, tuyg‘ular dunyosini ko‘rsatishga ehtiyoj ortdi. Nuqul kitobxonga o‘rnak bo‘lish va unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish missiyasini tashuvchi, ammo o‘z shaxsiy hayoti, insoniy tuyg‘u-kechinmalaridan mahrum trafaret adabiy qahramonlar inkor etildi.

“Boqiy darbadar” romani kompozitsiyasining uchinchi qismi “BOENG 787 DREAMLINER. Bo‘rondan yarim soat avval”, “Mutafakkirning vido maktubi”, “Bo‘rondan o‘n besh daqiqa avval”, “BOENG 787 DREAMLINER. Bo‘rondan o‘n daqiqa avval”, “Mezonul-avzon”, “Bo‘ron” shaklida sarlavhalangan olti bo‘lim-epizodni o‘z ichiga oladi. Ko‘rinib turibdiki, bu

qism yarim soatlik zamon voqeligini tasvirlashga qaratilgan. Shuningdek, bu qism voqealari markazida dunyoni ostin-ustun qilgan global bo‘ron hodisasi turadi.

Ushbu epizodlar tizmasida, asosan, ikki qahramon haqida gap ketadi. Biri professor Ziyo, ikkinchisi jahondagi harbiy birlashmalar tomonidan o‘limga hukm qilingan klon-odam obrazlari. Bu qismda ham ikkinchi qismdagidek ikki zamon uyg‘unlashtirilib tasvirlanadi. Axborot-kommunikatsiya vositalari orqali joriy zamon, professor Ziyo assotsiativ xayollari orqali o‘tmish zamoni.

Yozuvchi “BOENG 787 DREAMLINER. Bo‘rondan yarim soat avval” deb sarlavha qo‘yilgan epizodda Reyter axborot agentligining internet saytida berilgan axborotlarni roman voqealariga postmodernistik usulda payvandlaydi. Bundan o‘quvchi yangi asr dunyosida jahonda ro‘y bergan, hatto real hayotda ham axborot sifatida mavjud bo‘lgan o‘n uchta global axborot bilan tanishadi. Yozuvchining mahorati shundaki, internet uslubida berilgan turli axborotlarni professor Ziyo nigohida o‘qitishi bilan ularni romanning markaziy voqealari, badiiy-falsafiy konsepsiyasiga bog‘lay oladi. Masalan: “...dunyoning turli mintaqalarida sohillar kengayib bormoqda. Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, Sahroi Kabir keyingi o‘n yil ichida o‘ttiz kilometrga kengaygan...”; “...Misrda qoyalarni yo‘nib ishlangan uylardan topilgan anjomlar u yerda yashagan kishilarning, darhaqiqat, bahaybat gavdali, kuchli kishilar bo‘lganini tasdiqladi. Rivoyatlarga ko‘ra, ularni kuchli shamol halok qilgan...”; “...butunjahon Ovchilar Jamiyati barcha ovchilarni Xitoydan kelgan qora chumchuqlarni qirib tashlashga chaqirdi... Oddiy va odatiy sarg‘ish chumchuqlardan farq qilib, ular na don-dun terishadi, na sayrashadi, qop-qora ko‘zlarini jovdiratgancha **nimanidir** sabr-toqat bilan kutishadi...”; “...Yer yuzida eng sho‘r dengiz – Qizil dengizning Arabiston yarim oroli sohillariga yaqin yerida, suv ostida chuchuk suvli ulkan buloqlar borligi aniqlandi. Bundan ikki ming yil avval paydo bo‘lgani taxmin qilinayotgan mazkur buloqlarning suvi g‘oyat toza va shifobaxsh bo‘lib, dengizning sho‘r suviga aralashib ketmasdan to sohilga qadar oqib boradi... (Barcha kursivlar muallifga tegishli) va h.k. Ko‘rinib turibdiki, bu internet axborotlari qaysidir ko‘rinmas rishtalar orqali roman voqealariga bog‘lanadi, yozuvchi badiiy g‘oyasini yorqinroq ochishga xizmat qiladi. Sahroi Kabirga oid axborot global halokat haqidagi tadqiqotlardan, Misrga oid axborot Od qavmi haqidagi Qur‘oniy haqiqatdan, qora chumchuqlar haqidagi axborot romanning boshida Etikdo‘z munosabati bilan tasvirlangan “Yevangliya” matnidan, Qizil dengizga tegishli axborot Qur‘ondagi Allohning sho‘r va chuchuk suv o‘rtasiga ko‘rinmas parda tortib qo‘ygani haqidagi keyinchalik kapitan Kusto kashf etgan oyat haqiqatidan olingan. Bir qarashda quruq axborotdek bo‘lib tuyuladigan ushbu payvandlangan jajji epizodlar romandagi kompozitsiya mazmunining ezgulik va yovuzlik haqidagi falsafasi bilan izchil bog‘lanib ketadi.

Uchinchi qismdagi “Mezonul-avzon” deb sarlavhalangan bo‘lim romanni o‘zbek xalqining mumtoz o‘tmishi bilan bog‘lashi jihatidan xarakterlidir. Bunda professor Ziyo ulug‘ o‘zbek shoirlari Navoiy va Mashrabni eslaydi. Bo‘ron, o‘lim talvasasi oldidan yashagan hayotining falsafiy mohiyatini ularning g‘azallari orqali yechimini topishga urinadi. Bunda ham yozuvchi X.Borxesga xos postmodernistik payvandlash usulini qo‘llaydi. Ya‘ni Navoiy va Mashrab g‘azallaridan iborat mumtoz matnni roman kompozitsiyasiga singdirib yuboradi.

Yo Rab, ushbu turfa sho‘xi dilfirib,

Kim oning vaslin manga qilding nasib... deb boshlanuvchi Mashrab g‘azalining roman mazmuni bilan bog‘liq shunday sharhini beradi:

“Yo Rab, bu zarbulmasalning turli sho‘x va dilga firib beruvchi ma‘nolari vaslini menga nasib aylading”. Zarbulmasalning ma‘nosi inson ruhining abadiy hayotiga zarbulmasal qilingan (qo‘shilgan) dunyo hayoti. Zero, yolg‘onchi dunyo insonni aldash, unga o‘zini chiroyli ko‘rsatish bilan firib beradi, to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itadi. Ammo Mashrab singari murshid va komil shaxslar bunday firib beruvchi dunyo ma‘nosini anglagan insonlardir. Professor Ziyo ham shu silsilaning bir bo‘lagi sifatida shunday maqomga aloqador. Shu bois unga yaqinlashib

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

IYUL

ANDIJON, 2025

kelayotgan bo‘ron dahshati, o‘lim vahimasi boshqalarda bo‘lganidek qo‘rqinchli emas. Kiritma matndan kelib chiqadigan mana shunday ma‘rifiy ma‘no uni professor Ziyo orqali roman kompozitsiyasi va falsafiy mazmuniga dahldor qiladi.

I.Sultonning “Ozod” romani o‘zining qator kompozitsion qurilishga xos belgilari, ayniqsa, syujet tarkibining tuzilishi bilan XX asrning ikkinchi yarimlarida yevropada vujudga kelgan postmodernizm adabiyoti namunalariga yaqin keladi. Shuning bilan birgalikda, bu postmodernistik asar milliy-ma‘naviy tafakkurimiz, ming yillik mumtoz adabiyotimiz, sharqona etikamiz negiziga qurilganini ham e‘tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Исажон Султон. Асарлар. II жилд. – Тошкент: F. Фулом. 2017.-Б. 197.
2. Исажон Султон. Боқий дарбадар. – Тошкент: F. Фулом. 2011.-Б. 87.
3. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. -Т.: Маънавият, 2000.-Б. 109.
4. Собиров О. Ўзбек реалистик прозаси ва фольклор. -Т.: Фан, 1979.-Б. 199.
5. Султон И. Адабиёт назарияси. -Т.: Ўқитувчи, 1986. -Б. 408.
6. Тоғаев. О. Адиблар ва жанрлар. .-Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти.1976. –Б. 352.